
Qorako‘l tuman Axborot - kutubxona markazi
Axborot – bibliografiya xizmati



Mohir tarjimon va publisist

(O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov (1926-2009) tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlab)

Tavsiya ro‘yxati

Qorako‘l – 2026

So‘z boshi

O‘zbek adabiyoti tarixida inson taqdiri, jamiyat hayoti va milliy qadriyatlarni chuqur tasvirlagan ijodkorlardan biri–**Odil Yoqubovdir.** U o‘zining sermazmun asarlari bilan o‘zbek nasrining rivojiga katta hissa qo‘shgan. Adib ijodida insonning ma’naviy dunyosi, vijdon, adolat, halollik, Vatanga muhabbat kabi masalalar muhim o‘rin egallaydi.

Uning ijodiy faoliyati hikoya, qissa, roman, dramaturgiya va publitsistika kabi janrlarni qamrab oladi. Yozuvchining **“Ulug‘bek xazinasi”**, **“Ko‘hna dunyo”**, **“Diyonat”**, **“Oqqushlar, oppoq qushlar”**, **“Adolat manzili”** kabi asarlari o‘zbek kitobxonlari orasida mashhur.

Odil Yoqubov asarlarining asosiy xususiyatlaridan biri — hayot haqiqatini badiiy obrazlar orqali ta’sirchan ifodalashdir. Uning qahramonlari orqali yozuvchi insonni ezgulikka, halollikka, adolatga va ma’naviy poklikka chorlaydi. Shu bois Odil Yoqubov ijodi bugungi kunda ham o‘zining badiiy va ma’naviy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Odil Yoqubov – o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos maktab yaratgan, tarix va zamonaviy hayotni inson taqdiri bilan uyg‘un holda tasvirlagan yirik adibdir. Uning boy ijodiy merosi yosh avlodni milliy qadriyatlar, ilm-ma’rifat va insoniy fazilatlarni qadrlashga undaydi.

Odil Yoqubov hayoti va ijodi

O‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, O‘zbekiston xalq yozuvchisi **Odil Yoqubov** – 1926-yil 20-oktabrda hozirgi Janubiy Qozog‘iston hududidagi Qarnoq qishlog‘ida tug‘ilgan. 2009-yil 21-dekabrda Toshkent shahrida vafot etgan.

Odil Yoqubov 1951–1956-yillarda O‘rta Osiyo davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olgan. U uzoq yillar adabiyot va matbuot sohasida faoliyat yuritib,Yozuvchilar uyushmasida,**“Literaturnaya gazeta”**,**“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”**gazetalarida hamda nashriyot va kinostudiyalarda ishlagan.

Adibning dastlabki yirik asari **“Tengdoshlar”** qissasi bo‘lib, u 1951-yilda nashr etilgan. Keyinchalik **“Muqaddas”**,**“Er boshiga ish tushsa…”**, **“Diyonat”**,**“Ulug‘bek xazinasi”**,**“Ko‘hna dunyo”**, **“Oqqushlar, oppoq qushlar”**, **“Adolat manzili”** kabi mashhur asarlarni yaratdi.

Adibning **“Ulug‘bek xazinasi”** romanida Mirzo Ulug‘bek davri, ilm-fan va insoniy qadriyatlar tasvirlangan. **“Ko‘hna dunyo”** romanida esa buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino hayoti hamda taqdiri yoritilgan.
Odil Yoqubov nasriy asarlar bilan bir qatorda dramaturgiya, publitsistika va tarjimonlik sohalarida ham samarali ijod qilgan. U **O‘zbekiston xalq yozuvchisi** unvoniga sazovor bo‘lgan, **“Do‘stlik”** va **“El-yurt hurmati”** ordenlari bilan taqdirlangan.

Odil Yoqubov o‘z asarlarida insoniylik, adolat, vatanparvarlik, ilm-ma’rifat va ezgulik kabi g‘oyalarni yoritgan ijodkor sifatida o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin egallaydi.

1956 yilda adibning “Ikki muhabbat” nomli kitobi nashr etildi. Keyin birin-ketin “Muqaddas” (1960), “Bir felyeton qissasi” (1961), “Qanot juft bo‘ladi” (1969), “Billur qandillar” (1975) kabi qissalari chop qilindi. Odil Yoqubovning “Er boshiga ish tushsa” (1969) romani Ikkinchi jahon urushi yillaridagi voqelikni aks ettiradi. Odil Yoqubovning “Qanot juft bo‘ladi” qissasida shifokorlar, me’morlar, ishchilar hayoti tasviri bilan birga ijtimoiy va axloqiy muammolar ham o‘rtaga tashlangan.

Odil Yoqubov respublikamiz teatrlarida sahnalashtirilgan “Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim” (1956), “Yurak yonmog‘i kerak” (1957), “Chin muhabbat” (1958), “Olma gullaganda” (1960) va boshqa pyesalarning muallifidir. “Diyonat” romani asosida yaratilgan ko‘p seriyali videofilm ham muallifga sharaf keltirdi. U mohir tarjimon, munaqqid, publitsist sifatida ham barakali ijod qildi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” romani uchun Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. 1994 yilda “Do‘stlik”, 1998 yilda esa “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukofotlangan.

Aziz kitobxon! Adabiyotlar tavsiya ro‘yxatimizni tuzishdan maqsad Odil Yoqubov ma’naviy me’rosini yanada chuqurroq o‘rganish, uning vijdon, adolat, halollik, vatanga muhabbat kabi insoniy fazilatlarni madh etuvchi asarlarini xalqimiz orasida keng targ‘ib etishdir.

Adabiyotlar

2002

Ёқубов,О. Қайдасан Марико[Матн]:қиссалар,драмалар,ҳикоялар, этюдлар, мақолалар / О.Ёқубов. – Тошкент: Шарқ , 2002. – 432 б.

2010

Yoqubov,O. Muqaddas [Matn]:qissa / O.Yoqubov. – Toshkent:Sharq, 2010. – 112 b.

2012

Ёқубов,О. Осий банда[Матн]:хотиралар ва ҳикоялар /О.Ёқубов.– Тошкент: Ўзбекистон , 2012. – 192 б.

2014

Ёқубов,О. Биллур қандиллар[Матн]:қисса ва ҳикоялар / О.Ёқубов. – Тошкент: Янги аср авлоди , 2014. – 332 б.

2015

Yoqubov, O. Koʻhna dunyo[Matn]:roman / O.Yoqubov. – Toshkent:Yangi asr avlodi, 2015. – 476 b.

Yoqubov,O. Vido[Matn]:hikoyalar/O.Yoqubov; toʻplab nashrga tayyorlovchi: L.Igamova. – Toshkent: “O`zbekiston” NMIU, 2015. – 192 b.

2016

XX asr Oʻzbek hikoyasi antologiyasi[Matn] / Tahrir hay’ati: A.Oripov va boshq.;tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar: B.Karimov,H.Abdiyev.Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi ”Davlat ilmiy nashriyoti”, 2016. – 624 b.

2019

Yoqubov,O. Adolat manzili[Matn]:roman / O.Yoqubov. – Toshkent:Yangi nashr, 2019. – 240 b.

2020

Ёқубов, О. Онаизор[Матн]:қисса ва ҳикоялар / О.Ёқубов. – Тошкент : Ғафур Ғулом , 2020. – 336 б.

Yoqubov,O. Tilla uzuk[Matn]:qissalar,hikoyalar,etyudlar / O.Yoqubov. – Toshkent:Yangi asr avlodi , 2020. – 224 b.

2022

Yoqubov,O. Ota izidan[Matn]:qissa va hikoyalar / O. Yoqubov.–T oshkent: Zabarjad Media , 2022. – 144 b.

Odil Yoqubov[Matn]: nasr / to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar Sobir O‘nar, Iskandar Yoqubov. – Toshkent:O‘zbekiston , 2022. – 400 b.

2024

Yoqubov, O. Ulug‘bek xazinasi[Matn]: roman / O.Yoqubov. – Toshkent:Nurli dunyo, 2024. – 384 b.

Yoqubov, O. Diyonat[Matn]:roman / O.Yoqubov. – Toshkent: Nurli dunyo, 2024. – 416 b.

Yoqubov, O. Oq qushlar,oppoq qushlar[Matn]:roman / O.Yoqubov. – Toshkent: Nurli dunyo, 2024. – 416 b.

Yoqubov ,O. Er boshiga ish tushsa [Matn] : roman / O. Yoqubov. – Toshkent: Nurli dunyo , 2024. – 320 b.

Yoqubov ,O. Bir felyeton qissasi [Matn] : qissa va hikoyalar / O. Yoqubov. - Toshkent: Nurli dunyo nashriyoti, 2024. – 128 b.

Davriy nashrlarda chop etilgan maqolalar

Ўша кунни ҳамон қувонч билан эслайман : [Ўзбекистон халқ ёзувчиси Одил Ёқубовнинг турмуш ўртоғидан дил изҳори] //Халқ сўзи. – 2026. – 19 окт.

Hazratqulov, M. Adolatli adib:[O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov haqida] / M.Hazratqulov // Jadid. – 2026. – 21avg.

Meliboyev, A. Odil og‘aning armoni:[O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov haqida] / A.Meliboyev // Jadid. – 2026. – 18-sent.

Эгамқулов, Б. Исми жисмига монанд улуғ адиб:[Ўзбекистон халқ ёзувчиси Одил Ёқубов ҳаёти ва ижоди ҳақида] / Б.Эгамқулов // Янги Ўзбекистон. – 2026. – 28-сент.

Бўтаев, Ш. Одил Ёқубов ёққанмашъала:[Одил Ёқубовнинг адабиётшуносликка қўшган ҳиссаси ҳақида] / О. Ёқубов // Халқ сўзи. – 2026. – 19 окт.

Tuzuvchi: M.Qulliyeva